




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-noyabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 10 251,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 112,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,077 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 13,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 0,2 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'-kon

sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 42,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 9,0 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,018 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 849,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,077 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,0 %, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 25,0 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 16,0 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin .



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,0 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 25,0 %.




Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -16,0 %.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 301,8 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,944 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 100,2 % ni tashkil qildi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 98,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,961 %) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 69,8 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish – 29,9 % tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-noyabr	2020 - yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	142,2	206,2	-64,0
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	102,4	90,1	12,3
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:	48 432,0	48 284,0	148
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	13 284,0	8 112,0	5 172
Aroq – ming litr:	40,8	384,6	-343,8
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	5,6	12,7	-7,1

Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	368,0	771,6	-403,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	79 274,0	85 221,1	-5 947,1
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	21 063,7	11 393,2	9 670,5
Xo‘jalik sovuni – tonna:	4 159,91	3 655,0	504,91
Paxta tolasi – tonna:	67 164,6	55 261,4	11 903,2
Paxta chigiti – tonna:	107 886,5	84 263,0	23 623,5
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	52 642,0	23 737,1	28 904,9
Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:	24 621,0	25 851,0	-1 230

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 64,0 mln. kVts. ga, aroq 343,8 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari, 7,1 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 403,6 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 5 947,1 tonnaga, tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar 1 230 ming kv.m.ga kamaygan.



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

2020 - yil yanvar-noyabr oylarida o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 47,0 % ni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-noyabr oylarida bu ko‘rsatkich 44,7 % ga, o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,9 % dan 6,6 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning 0,11 % dan 0,15 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 41,5 % dan 44,6 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 15,5 mlrd. soʻmlik (2020 - yil yanvar- noyabr oylarida 9,4 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 4 581,0 mlrd. soʻmlik (3 997,3 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 681,6 mlrd. soʻmlik (590,4 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 4 571,3 mlrd. soʻmlik (3 534,2 mlrd. soʻm) mahsulot ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-noyabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	10 251,5	112,1
Urganch shahri	1 855,9	108,5
Xiva shahri	132,7	104,8
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bogʻot tumani	402,7	110,3

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-noyabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Gurlan tumani	416,5	114,8
Qo'shko'pir tumani	320,9	143,4
Urganch tumani	662,2	118,4
Hazorasp tumani	301,2	112,3
Tuproqqal'a tumani*	4 473,2	106,6
Xonqa tumani	521,3	103,3
Xiva tumani	221,7	98,8
Shovot tumani	322,2	110,0
Yangiariq tumani	197,9	81,5
Yangibozor tumani	423,1	115,7

Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tuproqqal'a tumani, Urganch shahri, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.




**Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar
sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da**

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-noyabrga nisbatan Qo'shko'pir tumanida 143,4 %, Urganch tumanida 118,4 %, Yangibozor tumanida 115,7 %, Gurlan tumanida 114,8 %, Hazorasp tumanida 112,3 %, Bog'ot tumanida 110,3 %, Shovot tumanida 110,0 %, Urganch shahri 108,5 %, Tuproqqal'a tumanida 106,6 %, Xiva shahri 104,8 %, Xonqa tumanida 103,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqal'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,6 %), Urganch shahri (18,1 %), Urganch (6,5 %), Xonqa (5,1 %), Gurlan (4,1 %), Yangibozor (4,1 %), Bog'ot (4,0 %), Qo'shko'pir (3,1 %), Shovot (3,1 %) hamda Hazorasp (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva (2,2 %), Yangiariq tumani (1,9 %) va Xiva shahri (1,3 %) ga to'g'ri kelmoqda





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-noyabr	2020 - yil yanvar-noyabr
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	10 251,5	8 511,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,8	1,8
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,8	1,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	9 849,4	8 131,3
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 374,1	1 285,4
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	270,4	287,5
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 566,0	1 685,7
Kiyim ishlab chiqarish	85,9	64,0
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	5,9	5,5
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	26,9	26,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	104,5	57,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,1	1,3


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-noyabr	2020 - yil yanvar-noyabr
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,4	0,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	24,9	43,6
Asosiy farmasevtika	15,2	9,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	84,1	91,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	319,5	238,2
Metallurgiya sanoati	32,8	51,4
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	161,9	168,2
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,4
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	21,9	22,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	233,2	107,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	4 300,9	3 824,0
Mebel ishlab chiqarish	40,0	27,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	96,5	93,6
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	83,0	41,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	301,8	308,6
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	98,5	69,8




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 5 999,9 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-noyabr



2020- yil yanvar-noyabr



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1 441,5 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 5,0 mlrd. so'mni va 4 553,4 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 99,3 %, 26,7 % va 106,1 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 58,5 % ni (2020 - yil yanvar- noyabr oylarida 67,7 %) tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda yengil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 488,6 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 3 332,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 732,5 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 – yilning yanvar-noyabr oylarida)

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	5 999,9	100,0	104,1
Urganch shahri	898,8	15,0	107,2
Xiva shahri	109,3	1,8	117,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	198,7	3,3	126,1
Gurlan tumani	160,7	2,7	99,3
Qo'shko'pir tumani	92,6	1,6	104,0
Urganch tumani	268,2	4,5	123,9
Hazorasp tumani	86,3	1,4	96,6
Tuproqqal'a tumani	3 461,4	57,7	101,2
Xonqa tumani	308,2	5,1	99,7
Xiva tumani	86,7	1,5	100,6
Shovot tumani	134,0	2,2	106,3
Yangiariq tumani	97,8	1,6	114,2
Yangibozor tumani	97,2	1,6	110,3

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib – 57,7 % ni, Urganch shahrida 15,0 % ni, Xonqa tumanida 5,1 % ni, Urganch tumanida 4,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bog'ot tumanida

(126,1 %), Urganch tumanida (123,9 %), Xiva shahrida (117,2 %), Yangiariq tumanida (114,2 %), Yangibozor tumanida (110,3 %), Urganch shahrida (107,2 %) va Shovot tumanida (106,3 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati
(2021 - yilning yanvar-noyabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1 441,5	100,0	99,3
Urganch shahri	501,0	34,8	98,1
Xiva shahri	31,0	2,1	74,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	133,8	9,3	119,3
Gurlan tumani	98,8	6,9	106,3
Qo‘shko‘pir tumani	40,4	2,8	88,4
Urganch tumani	158,0	11,0	110,1
Hazorasp tumani	44,7	3,1	93,8
Tuproqqal’a tumani	17,4	1,2	78,3
Xonqa tumani	195,2	13,5	99,2
Xiva tumani	35,0	2,4	61,4
Shovot tumani	82,0	5,7	101,5
Yangiariq tumani	38,5	2,7	85,4
Yangibozor tumani	65,7	4,5	117,2

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib – 34,8 % ,

shuningdek, Xonqa tumanida 13,5 %, Urganch tumanida 11,0 %, Bog‘ot tumanida 9,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumanida (119,3 %), Yangibozor tumanida (117,2 %), Urganch tumanida (110,1), Gurlan tumanida (106,3 %) va Shovot tumanida (101,5 %) kuzatildi.




**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi
va o‘shish sur‘ati
(2021 - yilning yanvar-noyabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-noyabr nisbatan, % da
Xorazm viloyati	4 553,4	100,0	106,1
Urganch shahri	392,8	8,6	127,0
Xiva shahri	78,3	1,7	152,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	64,8	1,4	143,0
Gurlan tumani	61,8	1,4	89,8
Qo‘shko‘pir tumani	52,2	1,2	120,3
Urganch tumani	110,3	2,4	151,0
Hazorasp tumani	41,6	1,0	99,9
Tuproqqal’a tumani	3 444,0	75,6	101,4
Xonqa tumani	113,0	2,5	100,5
Xiva tumani	51,7	1,1	177,4
Shovot tumani	52,1	1,1	114,9
Yangiariq tumani	59,3	1,3	146,0
Yangibozor tumani	31,5	0,7	98,3


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri keldi

(75,6 %), shuningdek, Urganch shahrida 8,6 % ni, Xonqa tumanida 2,5 % ni va Urganch tumanida 2,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida viloyat o‘shish sur‘ati (106,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkichni Xiva tumani (177,4 %), Xiva shahri (152,0 %), Urganch tumani (151,0 %), Yangiariq tumani (146,0 %), Bog‘ot tumani (143,0 %), Urganch shahri (127,0 %), Qo‘shko‘pir tumani (120,3 %) va Shovot tumani (114,9 %) tashkil qildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha iste‘mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati**
(2020 - yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, % da)



Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan Bog‘ot tumanida (126,1 %), Urganch tumanida (123,9 %), Xiva shahrida (117,2 %), Yangiariq tumanida (114,2 %), Yangibozor tumanida (110,3 %), Urganch shahrida (107,2 %), Shovot tumanida (106,3 %), Qo‘shko‘pir tumanida (104,0 %), Tuproqqal’a tumanida (101,2 %) va Xiva tumanida (100,6 %) sezilarli darajada o‘sgan.

Pasayish Xonqa tumanida (99,7 %), Gurlan tumanida (99,3 %) va Hazorasp tumanida (96,6) kuzatildi.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2021 - yil yanvar- noyabr oylarida, ming so'm)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, % da	Iste'mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	5 384,6	110,4	3 151,4	102,6
Urganch sh.	12 750,6	107,5	6 175,3	106,1
Xiva sh.	1 411,0	103,1	1 162,3	115,3
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog'ot	2 402,9	108,4	1 185,4	124,0
Gurlan	2 771,2	113,3	1 068,9	97,9
Qo'shko'pir	1 839,8	141,7	531,0	102,7
Urganch	3 265,3	116,1	1 322,6	121,5
Hazorasp	1 525,3	110,2	436,9	94,8
Tuproqqal'a	80 930,0	106,6	62 624,5	101,2
Xonqa	2 752,2	101,7	1 627,0	98,1
Xiva	1 496,3	97,1	585,4	98,9
Shovot	1 866,9	108,4	776,7	104,7
Yangiariq	1 680,9	80,3	830,2	112,5
Yangibozor	4 780,6	114,1	1 098,6	108,9

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar- noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 5 384,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 %

darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi 2020- yil yanvar- noyabr oylaridagi ko'rsatkichlar bilan solishtirib qilingan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 10 966,3 ming so'mdan 12 750,6 ming so'mga, Xiva shahrida 1 340,4 ming so'mdan 1 411,0 ming so'mga, Bog'ot tumanida 1 726,8 ming so'mdan 2 402,9 ming so'mga, Gurlan tumanida 2 353,9 ming so'mdan 2 771,2 ming so'mga, Qo'shko'pir tumanida 1 109,9 ming so'mdan 1 839,8 ming so'mga, Urganch tumanida 1 825,9 ming so'mdan 3 265,3 ming so'mga, Hazorasp tumanida 1 180,3 ming so'mdan 1 525,3 ming so'mga, Tuproqqal'a tumanida 72 135,0 ming so'mdan 80 930,0 ming so'mga, Xonqa tumanida 2 483,8 ming so'mdan 2 752,2 ming so'mga, Xiva tumanida 1 466,8 ming so'mdan 1 496,3 ming so'mga, Shovot tumanida 1 598,1 ming so'mdan 1 866,9 ming so'mga, Yangibozor tumanida 2 805,3 ming so'mdan 4 780,6 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (80 930,0 ming so'm), Urganch shahrida (12 750,6 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 384,6 ming so'm) yuqoriligi kuzatilgan.


Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 3 151,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-noyabr oylarida Urganch shahrida 5 819,6 ming so'mdan 2021 - yil yanvar-noyabr oylarida 6 175,3 ming so'mga, Xiva shahrida 1 008,5 ming so'mdan 1 162,3 ming so'mga, Bog'ot tumanida 956,1 ming so'mdan 1 185,4 ming so'mga, Qo'shk'opir tumanida 517,2 ming so'mdan 531,0 ming so'mga, Urganch tumanida 1 088,7 ming so'mdan 1 322,6 ming so'mga, Tuproqqal'a tumanida 61 891,9 ming so'mdan 62 624,5 ming so'mga, Shovot tumanida 741,7 ming so'mdan 776,7 ming so'mga, Yangiariq tumanida 737,8 ming so'mdan 830,2 ming so'mga, Yangibozor tumanida 1 008,9 ming so'mdan 1 098,6 ming so'mga o'sgani kuzatildi.

Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (62 624,5 ming so'm), Urganch shahrida (6 175,3 ming so'm) aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 151,4 ming so'm) yuqoriligi kuzatilgan.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021- yil yanvar- noyabr oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 538,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,8 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqalʼa tumani (4,4 %), Urganch shahri (23,8 %) va Qoʻshkoʻpir tumanida (27,6 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Urganch tumani (50,2 %), Yangibozor tumani (49,5 %), Bogʻot tumani (47,3 %), Xonqa tumani (36,4 %), Gurlan tumani (33,2 %), Shovot tumani (32,1 %), Hazorasp tumani (30,4 %), Qoʻshkoʻpir tumani (27,6 %), Urganch shahri (23,8 %) hissasiga toʻgʻri kelgan.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 284,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishda tutgan ulushi 12,5 % ni tashkil etdi.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1-dekabr holatiga koʻra)

Viloyatda 2021- yilning 1- dekabr holatiga, 4 150 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 829 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,0 %) Urganch shahriga, 493 tasi (11,9 %) Urganch tumaniga, 366 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga, 350 tasi (8,4 %) Xiva shahriga toʻgʻri kelmoqda.



2021 - yil yanvar – noyabr oylarida viloyatda 916 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi. Ulardan 137 tasi Urganch shahrida, 103 tasi Hazorasp tumanida, 98 tasi Qoʻshkoʻpir tumanida, 92 tasi Urganch tumanida, 83 tasi Xonqa tumanida, 83 tasi Bogʻot tumanida, 58 tasi Shovot tumanida, 57 tasi Xiva shahrida tashkil etilgan.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (62) 224-64-99